

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA BADIY ASARLARNI OSON TARZDA O'RGATISH METODIKASI

Husinova Xolida

Toshkent gumanitar fanlar universiteti boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarlarni oson tarzda turli xil metodlar asosida o'rgatish yo'llari haqida ma'lumot beriladi. Asosan, ertaklarni qay tarzda o'quvchiga o'rgatish va shu orqali ularni tafakkur dunyosini kengaytirish kabi vazifalar yoritilgan.

Abstract: This article provides information on ways to easily teach artistic works to elementary school students based on various methods. tasks are highlighted.

Kalit so'z: badiiy asar, ertak, maqol, topishmoq, o'quvchi, metod, ta'lif.

Key word: work of art, fairy tale, proverb, riddle, student, method, education.

Bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan jamiyatimizda ta'limga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Buning uchun, albatta, o'qituvchilarining ham jonbozlik ko'rsatishi lozim. Chunki o'qituvchi qay darajada o'zining fanining ustasi bo'lsa, u ta'lif bergan o'quvchilar ham shu darajada yuqori darajada bilimga ega bo'ladilar. Shunday ekan o'quvchilarga ta'lif – tarbiya berishda to'g'ri yo'lni tanlashimiz va oldimizga qo'ygan maqsadga erishishimiz uchun harakat qilishimiz kerak. Ta'lif- bu o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida olib boriladigan faoliyat turi hisoblanadi. Shu tarzda o'qituvchi darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'лади.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo'lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o'qib o'rganiladi. O'qish darsliklariga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bu kabi janrlarni oson tarzda o'rgatish uchun turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bu turdag'i asarlar o'zining qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'lib hisoblanadi. Biz bilamizki, har bir janrga oid asar matni bir-biridan tubdan farq qiladi. Ularning o'quvchilarga ta'sir qilish darajasi ham turlichadir. Masalan, she'riy asarlar ertak, topishmoq, maqol va hikoyadan o'zing ta'sir qilish insonning ichki his-tuyg 'ularini junbushga keltirishi



bilan farqlidir. Topishmoqlar ham o 'quvchilarni tezkorlikka, topqirlikka, hozirjavoblik va asosiysi tafakkur qilishga o'rgatadi.

Topishmoqlar predmet, voqeа-hodisalar о'rтасидаги о'xshashlikni taqqoslash orqali vabiron bir predmetning belgilari ko 'rsatilgan holda topishga chqiradi. Maqollar esa o 'quvchilarning har bir maqolni hayotiy misollar bilan sharhlashga o'rgatadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan talab qilinadigan narsa o'quvchiga oson tarzda yetkazib berish talab qilinadi.

Shu bilan birga o'quvchilar ko 'proq ertak janrini o'qishga qiziqishadi. Ertaklarni esda saqlashda yordam beradiga usullar orqali o'rgatish ma'quldir.

Ertak ustida ishslashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni qayta hkoya qilib berishga ham o 'rgatish kerak. Ertak aytish bolalarning og'zaki nutqni o'stiradi, shu bilan birgalikda ularning nutqini yangi so'z va iboralar va xalq maqollari bilan boyib borishini ta'inlaydi. Ayniqsa, ertaklarda keltirilgan maqollar va topishmoqlar ustida ishslash va shu orqali ularning nutqiy savodxonligini ham oshiradi.

Shu nuqtayi nazardan boshlang'ich sinflarda ko'plab ertaklar o'rganiladi. Xususan, 1-sinf da "Zumrad va Qimmat", "To'g'rivoy bilan Egriboy", "Uch og'ayni botirlar" kabi o'zbek xalq ertaklari haqida ma'lumot beriladi. Bu ertaklar bolalarni yaxshi va yomonni farqlashi, to'g'ri so'zli bo'lishga, yalg'on gapirmaslika o'rgatadi. Shu kabi insoniy fazilatlarini shakllanishiga yordam beradi. Ertaklarni qanday tartibda o 'rgatish kerak degan savolni oldimizga qo 'yishimiz kerak. Chunki biz ertakni faqat o 'qib berish bilan hech nima qila olmaymiz. Buning uchun bolalarni ertak o'qitishga bo 'lgan ishtiyoqini oshirishimiz va talab darajasida ulardan talab qilishimiz kerak.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rganishda quyidagicha maqsadlar ko'zda tutiladi:

1. Bolalarni barkamol inson ruhida tarbiyalash, ularda Vatan, jamiyatga muhabbat hissini tarbiyalash.
2. O'quvchilarga xalq ertaklari materiallari bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosida bilim berish.
3. O'quvchilarda ertak materiallarini o'qishga havas uyg'otish.
4. O'quvchilarning o'qish, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rganishda asosan metodlardan foydalanish kerak.

"Aqliy hujum" metodi orqali ertak asosida o'quvchilarga savollar berish. Bunda bolalar ertakni qay darajada o 'qigani va eslab qolish qobiliyati sinovdan o'tkaziladi. Masalan, "Qarg'avoy" ertagi bo 'yicha savollar berish.



1.Qaysi qush har doim mayin xonish qilib har tong odamlarni uyg ‘tadi?

2. Bulbul kuylashni kimga o‘rgatishga urindi?

3. Qaysi qush bahor kelishi bilan qorli o‘lkalarga uchib ketadi?

Shu kabi savollar ketma-ket tarzda beriladi.

Bolalarga fikrlashga chaqiradigan, tafakkur qiladigan savollar ham berish katta natija beradi. Chunki ertakni o‘qigandan so‘ng ertakka xulosa yasashga va g‘oyasini topishga yordam beradi. “Qarg ‘avoy” ertagi misolida:

1. Nima uchun ertakka qarg‘voy deb nom berilgan?

2. Nima uchun hamma insonlar qarg ‘ani emas, bulbulni yoqtirishadi?

3. Har kim qo ‘lidan keladigan ishni qilish kerak jumlesi qaysi qahramonning xarakteriga mos keladi v anima uchun?

4. Musichaning aqli ekanligini isbotlovchi jumlani topping matndan?

O‘quvchilarga ertak asosida eng sevgan qahramonini aks ettirgan chiroyli rasm chizishni topshirish va chizilgan rasmni ham sharhlab berishi kerak. Bundan tashqari ertakka mos holda maqollar topish kerak bo‘ladi. Maqollarni topish uchun bolalar ko‘p o‘qigan bo‘lishi va keng tafakkurli bo‘lishi kerak. Shu orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

Xullas, o‘quvchilarning ham bilimga qiziqishini oshirishda, ham ularni komil inson qilib tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Shu bilan birga ertak o‘quvchilar nutqini o‘stirishda ham katta ahamiyatga ega.

Ertak matni bog‘lanishli nutqni o‘stirish uchun zarur material beradi, ertaklarning tili sodda, aniq, o‘ziga xos obrazli ifodalarga boy bo‘lib, o‘quvchilarning fikrini, nutqini o‘stirishda g‘oyat muhimdir. Ertak voqealari esa bolalarning tasavvurini o‘stiradi, tushunchalarini kengaytiradi hamda ularda ijodiy qiziqish asar o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini rivojlantiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.Qosimova K., Matchonov S.va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, 2009. 2. Azimova I., Mavlanova K., Qur'onov S. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘limning 3-sinfi uchun darslik. 2-qism.-Toshkent: - 2022.

3. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 1992.

4. Rafiev A. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. T.: 2003.

5. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish printsiplari va metodlari. T.: O‘qituvchi, 1992.

